

“TASDIQLAYMAN”
Farg‘ona viloyat adliya
boshqarmasi huzuridagi
malaka komissiyasi raisi


U. Maxmudov
2024-yil 17-aprel

Farg‘ona viloyat adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasi yig‘ilishining
MK-5-son bayonnomasi

2024-yil 17-aprel

Farg‘ona shahri

Raislik etuvchi: U. Maxmudov – boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari,
komissiya raisi

Komissiya a‘zolari: U. Sapayev, Sh. Axmedov, Sh. Jo‘rayev, E. Ergashev,
R. Yusufzoda

Komissiya yig‘ilishida
ishtirok etganlar: Notariuslar M. Rustamova, U. Qodirov, E. Ismoilov va
Sh. Axmedov

Adliya vazirligi Notariat advokatura va huquqiy
xizmatlar boshqarmasi xodimi R. Abdug‘abbarov
(“Zoom” dasturi orqali)

Yig‘ilish kotibi: L. Asqarov – komissiya kotibi

Yig‘ilish: 17.04.2024-yil kuni soat 14:00 da boshlandi.

Kun tartibi

Farg‘ona viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 13-aprel kungi 1/9-2-9/89-son va 2024-yil 13-aprel kungi 1/9-2-9/90-son taqdimnomalari (Marg‘ilon shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius M. Rustamovaga (litsenziya FA 0032, 2020-yil 21-aprel); Buvayda shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius U. Qodirovga (litsenziya FA 0059, 2020-yil 21-aprel); Buvayda shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius E. Ismoilovga (litsenziya FA 0038, 2020-yil 21-aprel); Farg‘ona shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Sh. Axmedovga (litsenziya L-6642109, 2023-yil 27-iyul) berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishini to‘xtatish) muhokamasi to‘g‘risida.

(U. Maxmudov, U. Sapayev, Sh. Axmedov, Sh. Jo‘rayev, E. Ergashev, R. Yusufzoda)

Komissiya raisi U. Maxmudov yig‘ilishni ochib, malaka komissiyasi yig‘ilishi vakolatli ekanligini, kvorum mavjudligini e‘lon qildi.

Yig‘ilish raisi majlisni kirish so‘zi bilan ochib, kun tartibidagi masala yuzasidan quyidagilarni ta‘kidladi.

Farg'ona viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 13-aprel kungi 1/9-2-9/89-son va 2024-yil 13-aprel kungi 1/9-2-9/90-son taqdimnomalari (Marg'ilon shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius M.Rustamovaga (litsenziya FA 0032, 2020-yil 21-aprel); Buvayda shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius U.Qodirovga (litsenziya FA 0059, 2020-yil 21-aprel); Buvayda shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius E.Ismoilovga (litsenziya FA 0038, 2020-yil 21-aprel); Farg'ona shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sh.Axmedovga (litsenziya L-6642109, 2023-yil 27-iyul) berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishini to'xtatish so'ralganligini komissiya a'zolariga o'qib eshittirdi.

Shuningdek, taqdimnomalarda ko'rsatilgan holatlarni birma-bir ta'kidlab o'tdi. Xususan:

1. Adliya vazirligining 2024-yil 6-martdagi 1-20/22-240/8-son xatida Marg'ilon shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius M.Rustamova tomonidan 2021-yil 2-avgustdagi 202101595002903-sonli reyestr bilan qayd etilgan turar joy oldi-sotdi shartnomasi rasmiylashtirilishi holati va notariusning xatti-harakatlari yuzasidan xizmat tekshiruvini o'tkazish so'ralgan.

Shunga ko'ra, Farg'ona viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 3-apreldagi 76-um-son buyrug'iga asosan Notariat, advokatura va huquqiy xizmatlar sho'basi boshlig'i R.Yusufzoda, sho'basi bosh maslahatchi L.Asqarov hamda Farg'ona shahrida xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanuvchi notarius L.Gulamovlar tomonidan xizmat tekshiruvini o'tkazildi.

Ish hujjatlariga ko'ra, Farg'ona shahrida xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanuvchi notarius M.Rustamova (keyingi o'rinlarda – notarius M.Rustamova) tomonidan 2021-yil 2-avgustdagi 202101595002903-sonli reyestr bilan qayd etilgan turar joy oldi-sotdi shartnomasiga asosan fuqaro Selimov Enver Suleymanovich o'ziga tegishli bo'lgan Marg'ilon shahar, Sahovat MFY, B.Marg'iloniy ko'chasi 67-uy, 9-xonadonni fuqaro Akramov Feruzjon Voxidjon o'g'liga sotgan.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-noyabrdagi 726-son qarori bilan tasdiqlangan Notariuslar tomonidan ko'chmas mulklarni boshqa shaxsga o'tkazish haqidagi bitimlarni tasdiqlashning ma'muriy reglamentining (keyingi o'rinlarda – Reglament) 19-bandiga ko'ra bitimni notarial tasdiqlashda notarius mulklar mulkdorga tegishlilikini tekshiradi.

Reglamentning 20-bandiga asosan ko'chmas mulkka bo'lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- notarial tasdiqlangan shartnomalar (kelishuvlar);
- merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma;
- er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushiga mulk huquqi to'g'risida berilgan guvohnoma;

- sud qarori (hal qiluv qarori, ajrim va boshqalar) yoki davlat ijrochisining qarori yoxud davlat ijrochisi tomonidan tasdiqlangan undiruvchi va qarzdor o'rtasida tuzilgan bino va inshootni berish dalolatnomasi;

- ko'chmas mulk yoki uning bir qismi auksionda (kim oshdi savdosida) sotib olinganligini tasdiqlovchi auksion natijalari to'g'risidagi bayonnoma;

- qurilishi (rekonstruksiyasi) tugallangan binolar va inshootlarni foydalanishga qabul qilish dalolatnomasi;

- qurilishi tugallanmagan binolar va inshootlarning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarning davlat reyestridan (keyingi o'rinlarda — Reyestr) ko'chirma;

- ko'chmas mulk yoki uning bir qismini ochiq savdoda sotib olinganligi haqida guvohnoma;

- xususiylashtirilgan davlat binosi, inshooti, turar joyiga bo'lgan mulk huquqini beruvchi davlat orderi;

- qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa hujjatlar.

Shunga ko'ra, notarius M.Rustamova tomonidan Marg'ilon shahar, Sahovat MFY, B.Marg'iloniy ko'chasi 67-uy, 9-xonadon E.Selimovga tegishli ekanligini tasdiqlovchi Marg'ilon shahar hokimligi tomonidan 2020-yil 2-fevralda 1254-son bilan davlat reyestriga kiritilgan mulk huquqini beruvchi davlat orderining asli olingan.

Reglamentning 22-bandiga bitim rasmiylashtirilayotganida, mazkur reglamentning 20-bandida ko'rsatib o'tilgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlar talab qilib olinib o'rganilgandan so'ng, quyidagi hujjatlar notarius tomonidan idoralararo elektron hamkorlik yo'li bilan tizim orqali avtomatik tarzda yoki kuryerlik xizmatidan foydalangan holda olinadi:

- kommunal xizmatlar (gaz ta'minoti, sovuq suv ta'minoti va oqava suvlarni chiqarish, issiqlik ta'minoti (markaziy isitish va issiq suv ta'minoti) bo'yicha xizmatlar) va elektr energiyasi uchun to'lanadigan majburiy to'lovlar bo'yicha qarzi mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotnomalar (tadbirkorlik subyektlari - yuridik shaxslar o'rtasidagi ko'chmas mulk oldi-sotdi shartnomalari bundan mustasno);

- MIB ma'lumotlar bazasi orqali jismoniy va yuridik shaxslarning elektr energiyasi, tabiiy gaz yetkazib berish, suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari, shuningdek, ijro hujjatlari bo'yicha qarzdorligi mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotnomalar. Bunda tekshirish o'tkazilgan sana va vaqti ko'rsatilgan hamda maxsus QR-kodga ega bo'lgan tekshirish natijalari to'g'risidagi ko'chirma chop etiladi va tegishli hujjatlar yig'majildi bilan birga tikiladi;

- kadastr ma'lumotnomasi;

- soliqlar bo'yicha budjet oldida qarzi mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotnoma;

- turar joyda doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatda bo'lgan shaxslar haqidagi ichki ishlar organining ma'lumotnomasi;

- ko'chmas mulk yoki uning bir qismi garovga qo'yilgan bo'lsa, garovga oluvchining roziligi.

Shunga ko'ra, notarius M.Rustamova tomonidan quyidagi hujjat va ma'lumotnomalar belgilangan tartibda olingan:

- kommunal xizmatlardan (2021-yil 30-iyuldagi 48739229-son) hamda MIBdan ((2021-yil 2-avgustdagi 48875068-son) qarzdorligi mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotnomalar;

- kadastr ma'lumotnomasi (2021-yil 30-iyuldagi 48739308-son) hamda turar joyda doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatda bo'lgan shaxslar haqidagi ma'lumotnoma (2021-yil 26-iyuldagi 48487254-son), soliqlar bo'yicha budjet oldida qarzi mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotnoma (2021-yil 30-iyuldagi 48738621-son).

Reglamentning 36-bandiga muvofiq er (xotin)ning umumiy birgalikdagi mulki bo'lgan ko'chmas mulkni boshqa shaxsga o'tkazish bo'yicha bitim tuzish uchun xotinning (erning) notarius tomonidan shahodatlantirilgan yozma roziligi olinishi lozim.

Shunga ko'ra, notarius M.Rustamova tomonidan G.Tojiboyevaning eri E.Selimovning Marg'ilon shahar, Sahovat MFY, B.Marg'iloniy ko'chasi 67-uy, 9-xonadonni sotishiga roziligi haqidagi 2021-yil 2-avgustda 202101595002902-sonli reyestr bilan qayd etilgan arizasi olingan.

Reglamentning 40-bandiga asosan bitimni tasdiqlashda mol-mulkni boshqa shaxsga o'tkazish taqiqlanmaganligi va (yoki) xatlanmaganligi tizim orqali tekshiriladi. Bunda, mulkni boshqa shaxsga o'tkazish taqiqlanmaganligi yoki xatlanmaganligi haqidagi ma'lumotnoma chop etiladi va tegishli hujjatlar yig'majildi bilan birga tikiladi.

Shunga ko'ra, notarius M.Rustamova tomonidan Marg'ilon shahar, Sahovat MFY, B.Marg'iloniy ko'chasi 67-uy, 9-xonadonga nisbatan taqiq mavjud emasligi haqidagi 2021-yil 2-avgustdagi 48874725-son ma'lumotnomasi "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali olingan.

Reglamentning 31-bandiga asosan xususiylashtirilgan uy, kvartira, uyning yoki kvartiraning bir qismini boshqa shaxsga o'tkazish haqidagi bitimlarni tasdiqlashda mazkur Reglamentning 20-bandida ko'rsatib o'tilgan hujjatlar bilan birga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

xususiylashtirilgan uy, kvartira, uyning yoki kvartiraning bir qismiga mulk huquqini beruvchi davlat dalolatnomasi yoxud mahalliy davlat hokimiyati organining qarori yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining 1989-yil 21-iyundagi 203-son qaroriga muvofiq notarial tartibda tasdiqlangan uy, kvartira, uyning yoki kvartiraning bir qismining oldi-sotdi, hadya shartnomalari;

oilaning birgalikda yashovchi barcha voyaga yetgan a'zolarining roziligi;

uy, kvartira, uying yoki kvartiraning bir qismining xususiylashtirilishiga rozilik bergan shaxslar vafot etgan taqdirda ularning o'lim haqidagi guvohnomasi yoki dalolatnoma yozuvidan ko'chirmasi (nuxxasi olib qolinib, asli qaytarib beriladi).

Mazkur bandning beshinchi xatboshisida nazarda tutilgan ma'lumotnoma notarius tomonidan kuryerlik xizmatidan foydalangan holda yoki idoralararo elektron hamkorlik yo'li bilan Tizim orqali avtomatik tarzda olinadi.

Shunga ko'ra, notarius M.Rustamova tomonidan Marg'ilon shahar hokimligi tomonidan 2020-yil 2-fevralda 1254-son bilan davlat reyestriga kiritilgan mulk huquqini beruvchi davlat orderi;

- uying xususiylashtirilishiga rozilik bergan Selimova Devliyet Suleymanovning 2021-yil 2-avgustda 202101595002890-sonli reyestr bilan qayd etilgan turar joy sotilishiga rozilik arizasi;

- uying xususiylashtirilishiga rozilik bergan biroq vafot etgan R.Selimov, S.Selimov, Z.Selimovalarning o'lim haqidagi guvohnomasi nuxxasi olingan.

Biroq, notarius M.Rustamova tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining hududiy organlaridan (Toshkent shahrida — "Toshkent shahar uy-joylarga davlat orderlari va ma'lumotnomalar berish markazi" davlat unitar korxonasi) olingan uy, kvartira, uying yoki kvartiraning bir qismini xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to'g'risida ma'lumotnoma olinmagan.

Xizmat tekshiruvi guruhi tomonidan "Notarius" AAT orqali 2024-yil 9-aprel kuni Davlat aktivlarini boshqarish agentligining hududiy organidan olingan 86405215-sonli ma'lumotnomaga ko'ra, mazkur xonadon xususiylashtirishda S.Selimov (1954-yilda tug'ilgan), D.Selimov (1973-yilda tug'ilgan), E.Selimov (1979-yilda tug'ilgan), R.Selimov (1983-yilda tug'ilgan), L.Selimova (1984-yilda tug'ilgan), Sh.Abdullayeva (2008-yilda tug'ilgan), E.Selimov (2017-yilda tug'ilgan)lar ishtirok etilganligi ko'rsatilgan.

Fuqarolar Sh.Abdullayeva va E.Selimov voyaga yetmaganligi sababli shartnoma tasdiqlashda ularning roziligi talab etilmaydi.

Fuqaro L.Selimova tomonidan 2019-yil 12-noyabrda 201900570005910-sonli reyestr bilan Marg'ilon shahar, Sahovat MFY, B.Marg'iloniy ko'chasi 67-uy, 9-xonadonni Selimov Enver Suleymanovichning nomiga xususiylashtirishga rozilik arizasi bergan.

Biroq, notarius M.Rustamova tomonidan 2021-yil 2-avgustdagi 202101595002903-sonli reyestr bilan qayd etilgan turar joy oldi-sotdi shartnomasi tasdiqlashda L.Selimovadan rozilik arizasi olinmagan.

Xizmat tekshiruvi guruhi notarius M.Rustamova tomonidan 2021-yil 2-avgustdagi 202101595002903-sonli reyestr bilan qayd etilgan turar joy oldi-sotdi shartnomasi tasdiqlashda Davlat aktivlarini boshqarish agentligining hududiy organidan

olinmaganligi, xususiylashtirishda ishtirok etgan L.Selimovaning rozilik arizasi olinmasligiga olib kelgan deb hisoblaydi.

Notarius M.Rustamova tomonidan 2021-yil 2-avgustdagi 202101595002903-sonli reyestr bilan qayd etilgan turar joy oldi-sotdi shartnomasi rasmiylashtirishda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-noyabrdagi 726-son qarori bilan tasdiqlangan Notariuslar tomonidan ko'chmas mulklarni boshqa shaxsga o'tkazish haqidagi bitimlarni tasdiqlashning ma'muriy reglamentining 31-bandi talablariga rioya etilmagan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to'g'risidagi nizomga (ro'yxat raqami 3250, 2020-yil 26-iyun) ilova qilingan Xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib keladigan qoidabuzarliklar hollari va ular bo'yicha litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish muddatlarining **29-bandida** Xususiylashtirilgan uy, kvartira, uyning yoki kvartiraning bir qismini boshqa shaxsga o'tkazish bitimlarini tasdiqlashda oilaning birgalikda yashovchi barcha voyaga yetgan a'zolarining va xususiylashtirilishiga rozilik bergan shaxslarning yozma roziligi olinmaganligi 3 oy muddatga qadar litsenziya to'xtatib turilishi belgilangan.

Muddatlarning izoh qismiga ko'ra mazkur qoidabuzarlik hollaridan tashqari boshqa qoidabuzarliklar sodir etilganlik uchun litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish muddati malaka komissiyasi tomonidan qoidabuzarlikning og'ir-yengilligiga qarab belgilanadi.

2. Adliya vazirligining 2024-yil 6-martdagi 1-20/22-240/8-son xatida Buvayda tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius E.Ismoilov tomonidan 2021-yil 28-maydagi 202101404004361-sonli reyestr bilan qayd etilgan vasiyatnoma bo'yicha merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnomasining rasmiylashtirilishi holati va notariusning xatti-harakatlari yuzasidan xizmat tekshiruvini o'tkazish so'ralgan.

Shunga ko'ra, Farg'ona viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 3-apreldagi 75-um-son buyrug'iga asosan Notariat, advokatura va huquqiy xizmatlar sho'basi boshlig'i R.Yusufzoda, sho'basi bosh maslahatchi L.Asqarov hamda Farg'ona shahrida xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanuvchi notarius L.Gulamovlar tomonidan xizmat tekshiruvini o'tkazildi.

Ish hujjatlariga ko'ra, Buvayda tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius E.Ismoilov (*keyingi o'rinlarda – notarius E.Ismoilov*) tomonidan 2021-yil 28-maydagi 202101404004361-sonli reyestr bilan qayd etilgan vasiyatnoma bo'yicha merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma rasmiylashtirilgan.

Mazkur guvohnomaga asosan marhum Usmonov Isakalidan qolgan meros mol mulkining umumiy birgalikdagi mulk ishtirokchisi bo'lgan 2019-yil 29-may kuni vafot etgan marhum xotini Usmonova Dilbaroyning Buvayda tuman davlat notarial idorasi tomonidan 2013-yil 29-avgustda 2436-sonli reyestr bilan qayd etilgan vasiyatnomasiga

asosan, marhum Usmonov Isakaliga Buvayda tuman hokimining 2008-yil 8-avgustdagi 281-sonli qaroriga asosan tegishli bo'lgan Buvayda tumani, Poshshopirim qishlog'idagi 1732 kv.m. yer maydonida joylashgan turar joyning $\frac{1}{2}$ (ikkidan bir) qismiga Usmonova Sadoqatxon Isag'aliyevna merosxo'r deb topilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-noyabrdagi 726-son qarori bilan tasdiqlangan Notariuslar tomonidan merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnomani berishning ma'muriy reglamenti (bundan buyon Reglament) 18-bandiga ko'ra meros ochilgan joydagi notarius merosxo'r(lar)ning yozma arizasiga ko'ra guvohnoma beradi.

Shunga ko'ra, Buvayra tumanida yashab 2019-yil 29-mayda vafot etgan marhum D.Usmonovning qizi S.Usmonova tomonidan vasiyatnoma bo'yicha merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma berishni so'rab notarius E.Ismoilovga ariza bergan.

S.Usmonova o'z arizasida Fuqarolik kodeksining 1135-moddasiga asosan qonun bo'yicha merosxo'rlar sifatida Usmonov Valijon Isoqovich, Usmonov Nabijon Isaqovich, Tursunova Ra'noxon Isaqaliyevna, Usmonova Raximaxon Isagaliyevna, Imomova Odinaxon Isaqaliyevna va Usmonov Iskandar Isaqovichlar mavjudligini ko'rsatgan.

Reglamentning 23-bandiga ko'ra, notarius meros qoldiruvchining vafot etganligini, meros mol-mulki tarkibi va uning joylashgan joyini, vasiyatnomaning mavjudligi, meros qoldiruvchi bilan merosxo'rlarning qarindoshlik munosabatini hamda qonun bo'yicha merosxo'rlar doirasini aniqlaydi.

Vasiyatnoma mavjud yoki mavjud emasligini, agar mavjud bo'lsa, ushbu vasiyatnoma o'zgartirilmaganligi yoki bekor qilinmaganligini Tizim orqali tekshiriladi.

Fuqarolik kodeksining 1135-moddasiga ko'ra, meros qoldiruvchining bolalari (shu jumladan farzandlikka olingan bolalari), eri (xotini) va ota-onasi (farzandlikka oluvchilar) teng ulushlarda qonun bo'yicha birinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'ladilar. Meros qoldiruvchining vafotidan keyin tug'ilgan bolalari ham birinchi navbatdagi vorislar jumlasiga kiradilar.

Shunga ko'ra, notarius E.Ismoilov tomonidan Tizim orqali vasiyatnoma mavjudligi va bekor qilinmaganligi tekshirilganida, Buvayda tuman davlat notarial idorasi tomonidan 2013-yil 29-avgustda 2436-sonli reyestr bilan qayd etilgan vasiyatnoma tasdiqlanganligi aniqlangan. Vasiyatnomaga ko'ra, marhum D.Usmonova o'ziga tegishli bo'lgan Buvayda tumani, Paxtaobod qishlog'ida joylashgan uy-joyini qizi Usmonova Sadoqat Isagaliyevnaga vasiyat qilib qoldirgan.

Fuqarolik kodeksining 1142-moddasiga ko'ra, meros qoldiruvchining voyaga yetmagan yoki mehnatga qobiliyatsiz bolalari, shu jumladan farzandlikka olgan bolalari, shuningdek mehnatga qobiliyatsiz eri (xotini) va ota-onasi, shu jumladan uni farzandlikka olganlar, vasiyatnomaning mazmunidan qat'i nazar, qonun bo'yicha voris bo'lganlarida ulardan har biriga tegishi lozim bo'lgan ulushning kamida yarmini (majburiy ulush) meros qilib oladilar.

Reglamentning 26-bandiga ko'ra, vasiyatnoma bo'yicha merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berishda notarius meros qoldiruvchining merosdan majburiy ulush olish huquqiga ega bo'lgan voyaga yetmagan yoki mehnatga qobiliyatsiz merosxo'rlari mavjudligini aniqlaydi.

Mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga quyidagilar kiradi:

meros ochilgan kunga kelib 55 yoshga kirgan ayollar, 60 yoshga kirgan erkaklar;
meros ochilgan kunga kelib belgilangan tartibda I yoki II nogironligi bo'lgan deb topilgan shaxslar.

Merosdagi majburiy ulushdan voz kechish hech bir shartsiz bo'lishi lozim. Boshqa shaxslar foydasiga majburiy ulushdan voz kechishga yo'l qo'yilmaydi. Bu holatda meros mol-mulki vasiyatnomada ko'rsatilgan merosxo'rlarga vasiyatnoma bo'yicha o'tadi.

Shunga ko'ra, notarius E.Ismoilov tomonidan majburiy ukush olish huquqiga ega bo'lgan marhumning 1960-yilda tug'ilgan farzandi Tursunova Ra'noxon Isaqaliyevna aniqlangan. R.Tursunovaga 2021-yil 19-aprelda 283-sonli merosni qabul qilib olish haqidagi xabarnoma yuborilgan. Biroq, R.Tursunova merosni qabul qilib olish uchun kelmagan.

Fuqarolik kodeksining 1151-moddasiga asosan, agar turgan joyi aniqlanib, meros olishga chaqirilgan-u, lekin hozir bo'lmagan merosxo'r merosdan voz kechmagan bo'lsa, qolgan merosxo'rlar merosni taqsimlash niyatlari to'g'risida uni xabardor qilishlari shart. Agar hozir bo'lmagan merosxo'r xabar qilingan paytdan e'tiboran uch oy ichida qolgan merosxo'rlarni merosni taqsimlash haqidagi kelishuvda ishtirok etish istagi to'g'risida xabardor qilmasa, qolgan merosxo'rlar hozir bo'lmagan merosxo'rga tegishli bo'lgan ulushni ajratib, o'zaro kelishuvga ko'ra meros taqsimotini amalga oshirishga haqlidirlar.

Biroq, notarius E.Ismoilov tomonidan 2021-yil 28-maydagi 202101404004361-sonli reyestr bilan qayd etilgan vasiyatnoma bo'yicha merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnomasi tasdiqlashda, majburiy ulush olish huquqiga ega bo'lgan hozir bo'lmagan merosxo'r R.Tursunovaga tegishli bo'lgan ulushni ajratilmay, marhum D.Usmonovadan qolgan mol-mulkka nisbatan vasiyatnoma bo'yicha merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma berilgan.

Reglamentning 29-bandiga ko'ra, guvohnoma berishda notarius, qoida tariqasida, quyidagi hujjatlarni talab qiladi:

meros qoldiruvchining o'lim haqidagi guvohnoma yoki dalolatnoma yozuvidan ko'chirma yoxud o'lim holati fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida qayd qilinganligi haqida tibbiyot muassasalari tomonidan berilgan QR-kod (matrik shtrixli kod) tasviri tushirilgan ma'lumotnoma;

meros qoldiruvchining oxirgi doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olingan joyi haqidagi ichki ishlar organlarining ma'lumotnomasi yoki uy daftaridan ko'chirma;

meros tarkibining meros qoldiruvchiga tegishli ekanligini tasdiqlovchi hujjat (bunda meros mulki ko'chmas mulk bo'lsa, kadastr ma'lumotnomasi);

merosxo'rlarning tug'ilganlik haqidagi guvohnomalari va nikoh tuzilganligi haqidagi guvohnomalari (F.I.O. o'zgargan taqdirda) yoki dalolatnoma yozuvlaridan ko'chirmalar yoxud qarindoshlik munosabatlarining haqiqiyiligini belgilovchi sud hujjati;

merosxo'rlar vafot etgan taqdirda, o'lim haqidagi guvohnoma yoki dalolatnoma yozuvidan ko'chirma yoxud o'lim holati fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida qayd qilinganligi haqida tibbiyot muassasalari tomonidan berilgan QR-kod (matrik shtrixli kod) tasviri tushirilgan ma'lumotnoma;

meros qoldiruvchining tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi va nikoh tuzilganligi haqidagi guvohnomasi (ajrashganlik haqidagi guvohnoma) yoki dalolatnoma yozuvidan ko'chirma.

Mazkur bandning beshinchi — yettinchi xatboshilarida ko'rsatilgan fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlari bilan bog'liq ma'lumotlarni taqdim etish imkoni bo'lmagan taqdirda, ushbu ma'lumotlar notarial idoralar tomonidan mustaqil ravishda, "FHDYning yagona elektron arxivi" axborot tizimi orqali olinishi mumkin.

Elektron tizimlarda texnik nosozliklar bo'lganda, ushbu tashkilotlar bilan axborot almashuvi kuryerlik xizmat orqali amalga oshiriladi. Bunda kuryerlik xizmatidan foydalangan holda olinadigan ma'lumotnoma (ma'lumot) tegishli notarial harakatning hujjatlar yig'majildiga tikib qo'yiladi.

Shunga ko'ra, notarius E.Ismoilov tomonidan quyidagi hujjatlar olingan:

- meros qoldiruvchi D.Usmonovanning o'lim haqidagi 2019-yil 11-iyundagi guvohnoma;

- Buvayda tuman hokimining 2008-yil 8-avgustdagi 281-sonli qarori va kadastr ma'lumotnomasi (2021-yil 27-maydagi 45484769-son);

- merosxo'r S.Usmonovanning tug'ilgan haqidagi guvohnoma nusxasi;

Biroq, notarius E.Ismoilov tomonidan olingan Buvayda tuman hokimining 2008-yil 8-avgustdagi 281-sonli qarorida meros mulki meros qoldiruvchiga tegishli ekanligi tasdiqlovchi hujjat hisoblanmaydi. Mazkur Qarorga ko'ra mulk marhumning eri marhum I.Usmonovga tegishli hisoblanadi.

Oila kodeksining 23-moddasiga asosan er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklari, shuningdek nikoh qayd etilgunga qadar, bo'lajak er-xotinning umumiy mablag'lari hisobiga olingan mol-mulklari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi.

Mazkur Kodeksning 27-moddasiga ko'ra, Er va xotinning umumiy mol-mulki er va xotin o'rtasida o'zaro kelishuv asosida bo'lib olinishi mumkin. Er va xotinning xohishi bilan ularning umumiy mol-mulkni bo'lish to'g'risidagi o'zaro kelishuvi notarial tartibda tasdiqlanishi mumkin.

Nizo tug'ilgan hollarda er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish, shuningdek er va xotinning bu mol-mulkdagi ulushini aniqlash sud tartibida amalga oshiriladi.

Fuqarolik kodeksining 1114-moddasiga ko'ra, Umumiy birgalikdagi mulk ishtirokchisining o'limi umumiy mol-mulkka bo'lgan huquqdagi uning ulushini aniqlash va ushbu Kodeksning 226-moddasida belgilangan tartibda umumiy mol-mulkni taqsimlash yoxud undan vafot etgan ishtirokchining ulushini ajratish uchun asos bo'ladi. Bu holda meros vafot etgan ishtirokchining ulushiga to'g'ri keladigan umumiy mol-mulkka nisbatan ochiladi, mol-mulkni natura holida taqsimlashning imkoni bo'lmaganida esa — bunday ulushning qiymatiga nisbatan ochiladi.

Umumiy birgalikdagi mulk ishtirokchisi umumiy mol-mulkka bo'lgan huquqdagi o'z ulushini vasiyat qilishga haqlidir, bu ulush uning vafotidan keyin ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq aniqlanadi.

Mazkur Kodeksning 226-moddasiga ko'ra, umumiy mol-mulkni birgalikdagi mulk ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash, shuningdek ulardan birining ulushini ajratish dastlab ishtirokchilardan har birining umumiy mulk huquqidagi ulushi aniqlanganidan keyin amalga oshirilishi mumkin.

Yuqoridagi holatda marhumlar I.Usmonov va D.Usmonovalarning umumiy mol-mulkidan marhum D.Usmonovaga tegishli qismini ajratish dastlab ishtirokchilardan har birining umumiy mulk huquqidagi ulushi aniqlanganidan keyin amalga oshirilishi mumkin edi.

Biroq, notarius E.Ismoilov tomonidan marhumlar I.Usmonov va D.Usmonovalarning umumiy mol-mulkidagi birining ulushini ajratilmasdan, vasiyatnoma bo'yicha merosga bo'lgan huquq haqidagi guvohnoma rasmiylashtirilgan.

Farg'ona viloyat sudi fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atining 2023-yil 19-dekabrda ajrimiga ko'ra, notarius E.Ismoilov tomonidan 2021-yil 28-maydagi 202101404004361-sonli reyestr bilan qayd etilgan vasiyatnoma bo'yicha merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma haqiqiy emas deb topilgan.

Mazkur ajrimga ko'ra, Buvayda tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius E.Ismoilov tomonidan 2021-yil 28-may kuni reestrda 202101404004361-raqam bilan qayd etilgan 1/2 (ikkidan bir) qismga vasiyatnoma bo'yicha merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnomani rasmiylashtirishda Fuqarolik kodeksining 1114-moddasi talablarini buzgan. Ya'ni, javobgar S.Usmonovaga onasi D.Usmonovaning vasiyatnomasi asosida guvohnoma berishda meros mulklarining qaysi asosga ko'ra vasiyat farmoyishini bergan D.Usmonovaga tegishli ekanligi holati, uning mulkiy huquqlarning bor-yo'qligi, D.Usmonovaning meros mulkidagi ulushi qanchani tashkil etishi kabi holatlar aniqlanmagan.

Guvohnomada meros mulklarining Usmonov Isakaliga tegishli ekanligi holati ko'rsatilgan bo'lib, I.Usmonovning meros mulkidagi ulushning qancha qismi uning turmush o'rtog'i, ya'ni xotini D.Usmonovaga tegishli ekanligi va buning huquqiy asoslari ko'rsatilmagan. I.Usmonovga tegishli meros mulkini to'g'ridan-to'g'ri javobgar S.Usmonovaga o'tkazishga asoslar mavjud emas. Bundan tashqari, notarius tomonidan

Fuqarolik kodeksining 1142-moddasi tartibida majburiy ulush olish huquqiga ega bo'lgan merosxo'rlar doirasi aniqlanmagan.

Shu bilan birga, notarius meros mulki xususida tuzilgan boshqa mazmundagi vasiyatnomalar bor-yo'qligini tekshirmagan. D.Usmonova o'z vasiyat farmoyishida Buvayda tumani, Paxtaobod qishlog'ida joylashgan uy-joyini qizi S.Usmonovaga vasiyat qilib qoldirgan bo'lsa-da, bu holat ham e'tibordan chetda qolib, Paxtaobod qishlog'i hamda Poshshopirim qishlog'i yuzasidan tegishli ma'lumotlar o'rganilmagan, har ikki joyning aynan bir joy ekanligi tasdiqlanmagan.

Xizmat tekshiruvi guruhi tomonidan notarius E.Ismoilov tomonidan 2021-yil 28-maydagi 202101404004361-sonli reyestr bilan qayd etilgan vasiyatnoma bo'yicha merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnomasini tasdiqlashda meros mulkini marhum meros qoldiruvchiga tegishli ekanligini tasdiqlovchi Buvayda tuman hokimining 2008-yil 8-avgustdagi 281-sonli qarori meros mulkining meros qoldiruvchi marhum D.Usmonovaga tegishli ekanligi tasdiqlovchi hujjat hisoblanmaydi deb baholaydi.

Notarius E.Ismoilov tomonidan 2021-yil 28-maydagi 202101404004361-sonli reyestr bilan qayd etilgan vasiyatnoma bo'yicha merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnomasi rasmiylashtirishda Fuqarolik kodeksining 1114 va 1151-moddalari, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-noyabrdagi 726-son qarori bilan tasdiqlangan Notariuslar tomonidan merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnomani berishning ma'muriy reglamentining 29-bandi talablariga rioya etilmagan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to'g'risidagi nizomga (ro'yxat raqami 3250, 2020-yil 26-iyun) ilova qilingan Xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib keladigan qoidabuzarliklar hollari va ular bo'yicha litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish muddatlarining izoh qismiga ko'ra mazkur qoidabuzarlik hollaridan tashqari boshqa qoidabuzarliklar sodir etilganlik uchun litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish muddati malaka komissiyasi tomonidan qoidabuzarlikning og'ir-yengilligiga qarab belgilanadi.

3. Adliya vazirligining 2024-yil 6-martdagi 1-20/22-240/8-son xatida Buvayda tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius U.Qodirov tomonidan 2020-yil 18-iyundagi 202001640000626-sonli reyestr bilan qayd etilgan qonun bo'yicha merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnomasining rasmiylashtirilishi holati va notariusning xatti-harakatlari yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazish so'ralgan.

Shunga ko'ra, Farg'ona viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 3-apreldagi 74-um-son buyrug'iga asosan Notariat, advokatura va huquqiy xizmatlar sho'basi boshlig'i R.Yusufzoda, sho'basi bosh maslahatchi L.Asqarov hamda Buvayda tumanida xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanuvchi notarius L.Gulamovlar tomonidan xizmat tekshiruvi o'tkazildi.

Ish hujjatlariga ko'ra, Buvayda tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius U.Qodirov (*keyingi o'rinlarda – notarius U.Qodirov*) tomonidan 2020-yil 18-iyundagi 202001640000626-sonli reyestr bilan qayd etilgan qonun bo'yicha merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma rasmiylashtirilgan.

Mazkur guvohnomaga asosan marhum Tirkashev Anvarjonga Buvayda tumani davlat notarial idorasi tomonidan 1989-yil 24-iyunda 488-sonli reyestr bilan qayd etilgan oldi-sotdi shartnomasiga asosan tegishli bo'lgan Buvayda tumani, Yangiqo'rg'on MFY, Yog'du ko'chasida joylashgan raqamsiz uyga nisbatan marxumning turmush o'rtog'i Tirkasheva Sobira Yusupovna merosxo'r deb topilgan.

Notarial harakat amalga oshirilgan vaqtda amalda bo'lgan Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaning (ro'yhat raqami 3113, 04.01.2019-y) (*keyingi o'rinlarda Yo'riqnoma*) 130-bandiga asosan merosxo'rlardan biri yoki uning vakili meros qoldiruvchining vafot etganligi haqidagi guvohnoma yoki dalolatnoma yozuvidan ko'chirma bilan meros ochilgan joydagi notariusga murojaat etgan kunning o'zida notarius Tizim orqali meros qoldiruvchining mol-mulkiga nisbatan meros ishi ochilgan yoki ochilmaganligini tekshiradi.

Meros ishi ochilmagan taqdirda murojaat etgan merosxo'r yoki uning vakilidan merosxo'rlar doirasi ko'rsatilgan holda meros ishi ochish to'g'risida ariza olinadi va notarius Tizimga meros ishini ochish bo'yicha ma'lumotlarni kiritadi. Bu holda, notarius merosxo'r yoki uning vakilining shaxsini aniqlaydi va imzosi haqiqiylikini tekshiradi, bu haqda arizaga belgi qo'yadi va shaxsini tasdiqlovchi hujjatning nomini, uning raqamini, qachon va kim tomondan berilganligini va tug'ilgan yilini ko'rsatadi.

Notarius meros qoldiruvchining vafot etganligini, meros mol-mulki tarkibi va uning joylashgan joyini, vasiyatnomaning mavjudligi, meros qoldiruvchi bilan merosxo'rlarning qarindoshlik munosabatini hamda qonun bo'yicha merosxo'rlar doirasini aniqlaydi.

Shunga ko'ra, notarius U.Qodirov tomonidan fuqaro S.Tirkashevaning arizasiga asosan vafot etgan marhum A.Tirkashevga tegishli bo'lgan meros mulkiga nisbatan 2020-yil 12-iyun kuni FA 114638-son meros ishi ochilgan.

Fuqaro S.Tirkashevaning qonun bo'yicha merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi berishni hamda Fuqarolik kodeksining 1135-moddasiga asosan o'zidan boshqa merosxo'rlar yo'qligi haqidagi ariza olingan.

Merosxo'rlar doirasini aniqlash maqsadida Buvayda tumnai "Yangiqo'rg'on" MFYning 2018-yil 30-iyuldagi 2056-sonli ma'lumotnomasi olingan. Ma'lumotnomaga ko'ra, marxumning merosxo'ri sifatida faqatgina uning turmush o'rtog'i S.Tirkasheva borli ko'rsatilgan.

Biroq, merosxo'rlar doirasini aniqlashda marhumning avvalgi nikohi va u nikoh davrida ottirilgan farzandlari mavjudligi aniqlash choralri ko'rilmagan. Vaholanki, marhum A.Tirkashev 1935-yil 12-avgustda tug'ilgan bo'lib, merosxo'r 1950-yil 15-noyabrda tug'ilgan S.Tirkasheva bilan 1978-yil 21-martda qonuniy nikoh qayd etilgan. Mazkur nikoh qayd etilgan vaqtda marhum A.Tirkashev 43-yoshda bo'lganligi, marhumning avvalgi nikohi mavjudligini va ushbu nikohdan ottirilgan farzandlari haqidagi ma'lumotni olishni talab etadi.

Yo'riqnomaning 131-bandiga asosan notariusga murojaat etgan marhum erdan (xotindan) keyin beva qolgan xotiniga (eriga) O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 23-moddasi va Qonunning 63-moddasiga asosan meros qoldiruvchi bilan birgalikdagi nikoh davomida orttirilgan mulkdan o'z ulushini ajratgan yoki ajratmagan holda meros qolgan mulkka nisbatan merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma berish haqida ariza olinadi.

Shunga ko'ra, U.Qodirov tomonidan marhumning turmush o'rtog'i S.Tirkashevaning Oila kodeksining 23-kodeksi va "Notariat to'g'risida"gi Qonunning 63-moddasiga asosan mulk huquqi to'g'risidagi guvohnoma olishni xohlamasligi haqidagi arizasi olingan.

Yo'riqnomaning 136-bandiga asosan merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma berishda notarius qoida tariqasida quyidagi hujjatlarni talab qiladi:

meros qoldiruvchining o'lim haqidagi guvohnoma yoki dalolatnoma yozuvidan ko'chirma;

meros qoldiruvchining oxirgi doimiy yashash (doimiy propiska qilingan) joyi haqidagi ichki ishlar organlarining ma'lumotnomasi yoki o'lim haqidagi dalolatnoma yozuvidan ko'chirma yoxud uy daftaridan ko'chirma;

meros tarkibining meros qoldiruvchiga tegishli ekanligini tasdiqlovchi hujjat (bunda meros mulki ko'chmas mulk bo'lsa, kadastr ma'lumotnomasi);

merosxo'rlarning tug'ilganlik haqidagi guvohnomalari va nikoh tuzilganligi haqidagi guvohnomalari (F.I.O. o'zgargan taqdirda) yoki dalolatnoma yozuvlaridan ko'chirmalar yoxud qarindoshlik munosabatlarining haqiqiylikini belgilovchi sud hujjati;

merosxo'rlar vafot etgan taqdirda o'lim haqidagi guvohnoma yoki dalolatnoma yozuvidan ko'chirma;

meros qoldiruvchining tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi va nikoh tuzilganligi haqidagi guvohnomasi (ajrashganlik haqidagi guvohnoma) yoki dalolatnoma yozuvidan ko'chirma.

Agar qonun bo'yicha merosxo'rlarning biri yoki bir nechtasi vorislikka chaqirishga asos bo'ladigan munosabatlar mavjudligini isbotlaydigan hujjatlarni taqdim etish imkoniyatiga ega bo'lmasa, ular merosni qabul qilib olgan va tegishli

isbotlarni taqdim etgan boshqa barcha merosxo‘rlarning yozma roziligi bilan merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnomaga kiritilishi mumkin. Bu rozilik yozma ariza ko‘rinishida rasmiylashtiriladi. Merosxo‘rlar shaxsan o‘zlari meros ochilgan joydagi notarial idoraga kelib, arizani taqdim etgan holda, ularning imzolarining haqiqiylikini shahodatlash talab qilinmaydi. Bu holda, notarius merosxo‘rlarning shaxsini aniqlaydi va imzolari haqiqiylikini tekshiradi, bu haqda arizaga belgi qo‘yadi va shaxsini tasdiqlovchi hujjatning nomini, uning raqamini, qachon va kim tomondan berilganligini va tug‘ilgan yilini ko‘rsatadi.

Ushbu ariza notarius, Qonunning 26-moddasida sanab o‘tilgan mansabdor shaxslar yoki O‘zbekiston Respublikasi konsullik muassasalarining konsullari tomonidan shahodatlantirilgan holda taqdim etilishi mumkin.

Shunga ko‘ra, notarius U.Qodirov tomonidan quyidagi hujjatlar olingan:

- meros qoldiruvchi A.Tirkashevning o‘lim haqidagi 2016-yil 24-avgustdagi guvohnoma;

- Buvayda tumani davlat notarial idorasi tomonidan 1989-yil 24-iyunda 488-sonli reyestr bilan qayd etilgan oldi-sotdi shartnomasi va kadastr ma‘lumotnomasi 2020-yil iyundagi 29967401-son);

- marhum A.Tirkashev va merosxo‘r uning turmush o‘rtog‘i S.Tirkashevalarning nikoh tuzilganligi haqidagi guvohnoma;

- meros qoldiruvchi A.Tirkashevning ota onasi T.Isaboyev va L.Isaboyevalarning o‘lim haqidagi dalolatnoma yozuvidan ko‘chirma.

Biroq, notarius U.Qodirov tomonidan meros qoldiruvchining oxirgi doimiy yashash (doimiy propiska qilingan) joyi haqidagi ichki ishlar organlarining ma‘lumotnomasi yoki o‘lim haqidagi dalolatnoma yozuvidan ko‘chirma yoxud uy daftaridan ko‘chirma olinmagan.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha Qo‘qon tumanlararo sudining 2023-yil 6-oktabrdagi hal qiluv qaroriga ko‘ra, notarius U.Qodirov tomonidan 2020-yil 18-iyundagi 202001640000626-sonli reyestr bilan qayd etilgan qonun bo‘yicha merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnoma haqiqiy emas deb topilgan.

Mazkur qarorga ko‘ra, Uchko‘prik tumanida 1958-yil 25-iyun kuni tug‘ilgan Tirkashova Sapiyaxonning tug‘ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuvining otasi ustunida Tirkashov Anvarjon deb qayd etilgan. Uchko‘prik tumanida 1960-yil 4-avgust kuni tug‘ilgan Tirkashev Soyibjon Anvarovichning tug‘ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuvining otasi ustunida Tirkashov Anvarjon deb qayd etilgan.

Tirkashev Anvarjon va S.Tirkashevalar 1978-yil 21-mart kuni qonuniy nikohdan o‘tib turmush qurishgan. Ularni birgalikdagi turmushlaridan farzandlari yo‘q.

Buvayda tuman davlat notarial idorasi tomonidan tasdiqlangan 1989-yil 4-iyundagi oldi-sotdi shartnomasiga asosan, Buvayda tumani “Yangiqo‘rg‘on” MFY

Yogʻdu koʻchasi 19-uy Tirkashev Anvarjonga tegishli boʻlgan. Mazkur mulklar Tirkashev Anvarjon va S.Tirkashevalar birga yashagan davrida olingan.

Marhum A.Tirkashevning birinchi navbatdagi merosxoʻrlar 3 nafarni (turmush oʻrtogʻi S.Tirkasheva va 2 nafar farzand) tashkil etadi.

Xizmat tekshiruvi guruhi notarius U.Qodirov tomonidan 2020-yil 18-iyundagi 202001640000626-sonli reyestr bilan qayd etilgan qonun boʻyicha merosga boʻlgan huquq toʻgʻrisidagi guvohnomasi tasdiqlashda birinchi navbatdagi merosxoʻrlar doirasini aniqlash uchun zarur harakatlarni yetarli darajada amalga oshirmagan, vakolatli tashkilotlarga zarur soʻrovlar berilib merosxoʻrlar yoʻqligi haqidagi maʼlumotnomalar olinmagan deb hisoblaydi.

Notarius U.Qodirov tomonidan 2020-yil 18-iyundagi 202001640000626-sonli reyestr bilan qayd etilgan qonun boʻyicha merosga boʻlgan huquq toʻgʻrisidagi guvohnomasi rasmiylashtirishda Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi toʻgʻrisidagi yoʻriqnomaning (roʻyhat raqami 3113, 04.01.2019-y) 130 va 136-bandi talablariga qisman rioya etilmagan.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari toʻgʻrisidagi nizomga (roʻyxat raqami 3250, 2020-yil 26-iyun) ilova qilingan Xususiy notarial faoliyat bilan shugʻullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishini toʻxtatib turishga olib keladigan qoidabuzarliklar hollari va ular boʻyicha litsenziyaning amal qilishini toʻxtatib turish muddatlarining izoh qismiga koʻra mazkur qoidabuzarlik hollaridan tashqari boshqa qoidabuzarliklar sodir etilganlik uchun litsenziyaning amal qilishini toʻxtatib turish muddati malaka komissiyasi tomonidan qoidabuzarlikning ogʻir-yengilligiga qarab belgilanadi.

4. Boshqarma tomonidan 2024-yil 28-mart kuni Fargʻona shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Sh.Axmedovning notarial idorasida “sirli mijoz” tadbiri oʻtkazilgan vaqtda, notarius Sh.Axmedov tomonidan fuqaro G.Musajonovning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni soʻrab olmasdan, 2024-yil 28-martda 202402532000212-sonli reyestr bilan qayd etilgan notarial harakat rasmiylashtirilganligi aniqlandi.

Shunga koʻra, Fargʻona viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 3-apreldagi 77-um-son buyrugʻiga asosan Notariat, advokatura va huquqiy xizmatlar shoʻbasi boshligʻi R.Yusufzoda, shoʻbasi bosh maslahatchi L.Asqarov hamda Fargʻona shahrida xususiy notarial faoliyat bilan shugʻullanuvchi notarius L.Gulamovlar tomonidan xizmat tekshiruvi oʻtkazildi.

Ish hujjatlariga koʻra, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-iyuldagi 464-son qarori bilan tasdiqlangan Notariat toʻgʻrisidagi qonunchilik hujjatlariga notariuslar tomonidan rioya etilishi ustidan nazorat qilish tartibi toʻgʻrisidagi nizom hamda boshqarma boshligʻining 2024-yil 28-martdagi 71-um-son “Sirli mijoz” monitoring tadbiri oʻtkazish haqidagi buyrugʻiga asosan, boshqarmaning Notariat, advokatura va

huquqiy xizmatlar shoʻbasi boshligʻi R.Yusufzoda va shoʻba bosh maslahatchisi L.Asqarovlar tomonidan Fargʻona shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Sh.Axmedovning notarial idorasida sirli mijoz sifatida boshqarma huzuridagi idoraviy FHDY arxivi arxivariusi Musajonova Guloyimxon Mavlonjon qizini jalb etgan holda 2024-yil 28-mart kuni “Sirli mijoz” monitoring tadbiri oʻtkazilganida quyidagilar aniqlandi.

Notarius Sh.Axmedovga fuqaro G.Musajonova hujjatlardan olingan koʻchirmalarning toʻgʻriligini shahodatlash notarial harakattini amalga oshirishni soʻrab murojaat qilgan vaqtda, notarius Sh.Axmedov fuqaroning shaxsini tasdiqlovchi hujjati mavjud boʻlmasada, shaxsiga oid maʼlumotlarni fuqaroning oʻzidan ogʻzaki ravishda olib notarial harakatni rasmiylashtirgan.

“Notariat toʻgʻrisida”gi Qonunning 32-moddasiga asosan notariuslar va notarial harakatlarni amalga oshiruvchi boshqa mansabdor shaxslar notarial harakatlarni amalga oshirishni soʻrab murojaat qilgan kishilarning shaxsini aniqlaydi.

Notarial harakatni amalga oshirishni soʻrab murojaat qilgan kishining shaxsi uning shaxsiga nisbatan har qanday shubhalarni istisno etadigan pasporti yoki boshqa hujjatlariga asosan aniqlanishi kerak.

Notarial harakatni amalga oshirishni soʻrab murojaat qilgan fuqaroning shaxsini aniqlashda notarius tegishli axborot resurslaridan foydalanadi.

Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi toʻgʻrisidagi yoʻriqnomaning (roʻyxat raqami 3113, 2019-yil 4-yanvar) 3-bandiga koʻra, notarius notarial harakatlarni amalga oshirishni soʻrab murojaat qiluvchilarning (ularning qonuniy vakillarining, shuningdek vasiy va homiylarining) va yuridik shaxs vakillarining shaxsini aniqlaydi.

Notarial harakatlarni amalga oshirishni soʻrab murojaat qiluvchi fuqarolarning shaxsi quyidagi hujjatlarga asosan aniqlanadi:

Oʻzbekiston fuqarolarining shaxsi — Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti (identifikatsiya ID-kartasi);

16 yoshga toʻlmagan fuqarolarning shaxsi — tugʻilganlik toʻgʻrisidagi guvohnoma;

harbiy xizmatchilarning shaxsi — harbiy qismlar va harbiy muassasalar qoʻmondonligi tomonidan beriladigan shaxsiy guvohnomalar yoki harbiy biletlar (harbiy xizmatga majbur fuqarolarning harbiy bileti bundan mustasno);

chet el fuqarolarining shaxsi — ularning milliy pasporti (qonunchilik hujjatlariga muvofiq chet el fuqarolari tegishli ichki ishlar organlari tomonidan roʻyxatga olinishi lozim) yoki Oʻzbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi (identifikatsiya ID-kartasi) yoxud diplomatik pasporti yoki Oʻzbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilinganligini tasdiqlovchi akkreditatsiya kartočkasi;

xorijda doimiy yashayotgan va konsullik roʻyxatida turgan Oʻzbekiston fuqarolarining shaxsi — Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasporti;

fuqaroligi bo'lmagan shaxs uchun — O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi (identifikatsiya ID-kartasi).

Notarial harakatni amalga oshirishni so'rab murojaat qilgan fuqaroning shaxsini hamda yuridik shaxsning huquq layoqatini aniqlashda notarius tegishli axborot resurslaridan foydalanadi.

Biroq, notarius Sh.Axmedov tomonidan fuqaro G.Musajonovanning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni so'rab olmasdan, 2024-yil 28-martda 202402532000212-sonli reyestr bilan qayd etilgan notarial harakat rasmiylashtirildi.

Notarius Sh.Axmedov tomonidan 2024-yil 28-martda 202402532000212-sonli reyestr bilan qayd etilgan hujjatlar ko'chirma nusxalarining va hujjatlardan olingan ko'chirmalarning to'g'riligini shahodatlashni rasmiylashtirishda "Notariat to'g'risida"gi Qonunning 32-moddasi va Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaning (ro'yxat raqami 3113, 2019-yil 4-yanvar) 3-bandi talablariga rioya qilmagan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to'g'risidagi nizomga (ro'yxat raqami 3250, 2020-yil 26-iyun) ilova qilingan Xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib keladigan qoidabuzarliklar hollari va ular bo'yicha litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish muddatlarining izoh qismiga ko'ra mazkur qoidabuzarlik hollaridan tashqari boshqa qoidabuzarliklar sodir etilganlik uchun litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish muddati malaka komissiyasi tomonidan qoidabuzarlikning og'ir-yengilligiga qarab belgilanadi.

Notariuslar M.Rustamova, U.Qodirov, E.Ismoilov va Sh.Axmedov xizmat tekshiruvni xulosasi bilan tanishganliklarini e'tirozi yo'qligini kelgusida bunday kamchiliklarga yo'l qo'ymasligini ma'lum qildi.

Komissiya a'zolari taqdimnomada ko'rsatilgan holatlar hamda to'plangan hujjatlarni ko'rib chiqib, notariusning ko'rsatmalarini tinglab, kun tartibidagi masalalar bo'yicha muhokama qilib, quyidagi to'xtamga keldilar:

1. Notarius M.Rustamova tomonidan 2021-yil 2-avgustdagi 202101595002903-sonli reyestr bilan qayd etilgan turar joy oldi-sotdi shartnomasi rasmiylashtirishda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-noyabrdagi 726-son qarori bilan tasdiqlangan Notariuslar tomonidan ko'chmas mulklarni boshqa shaxsga o'tkazish haqidagi bitimlarni tasdiqlashning ma'muriy reglamentining 31-bandi talablariga rioya etilmagan.

Shunga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to'g'risidagi nizomga (ro'yxat raqami 3250, 26.06.2020-yil) ilova qilingan Xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib keladigan qoidabuzarliklar hollari va ular bo'yicha litsenziyaning amal qilishini to'xtatib

turish muddatlarining 29-bandini qoʻllab, notarius M.Rustamova litsenziyasining amal qilish muddatini 3 oy muddatga qadar toʻxtatish haqida toʻxtamga keldilar.

2. Notarius E.Ismoilov tomonidan 2021-yil 28-maydagi 202101404004361-sonli reyestr bilan qayd etilgan vasiyatnoma boʻyicha merosga boʻlgan huquq toʻgʻrisidagi guvohnomasi rasmiylashtirishda Fuqarolik kodeksining 1114 va 1151-moddalari, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-noyabrdagi 726-son qarori bilan tasdiqlangan Notariuslar tomonidan merosga boʻlgan huquq toʻgʻrisida guvohnomani berishning maʼmuriy reglamentining 29-bandi talablariga rioya etilmagan.

Shunga koʻra, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari toʻgʻrisidagi nizomga (roʻyxat raqami 3250, 26.06.2020 y) ilova qilingan Xususiy notarial faoliyat bilan shugʻullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishini toʻxtatib turishga olib keladigan qoidabuzarliklar hollari va ular boʻyicha litsenziyaning amal qilishini toʻxtatib turish muddatlarining izoh qismini qoʻllab, notarius E.Ismoilov litsenziyasining amal qilish muddatini 15 kun muddatga qadar toʻxtatish haqida toʻxtamga keldilar.

3. Notarius U.Qodirov tomonidan 2020-yil 18-iyundagi 202001640000626-sonli reyestr bilan qayd etilgan qonun boʻyicha merosga boʻlgan huquq toʻgʻrisidagi guvohnomasi rasmiylashtirishda Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi toʻgʻrisidagi yoʻriqnomaning (roʻyhat raqami 3113, 04.01.2019-y) 130 va 136-bandi talablariga qisman rioya etilmagan.

Shunga koʻra, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari toʻgʻrisidagi nizomga (roʻyxat raqami 3250, 26.06.2020 y) ilova qilingan Xususiy notarial faoliyat bilan shugʻullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishini toʻxtatib turishga olib keladigan qoidabuzarliklar hollari va ular boʻyicha litsenziyaning amal qilishini toʻxtatib turish muddatlarining izoh qismini qoʻllab, notarius U.Qodirov litsenziyasining amal qilish muddatini 1 oy muddatga qadar toʻxtatish haqida toʻxtamga keldilar.

4. Notarius Sh.Axmedov tomonidan 2024-yil 28-martda 202402532000212-sonli reyestr bilan qayd etilgan hujjatlar koʻchirma nusxalarining va hujjatlardan olingan koʻchirmalarning toʻgʻriligini shahodatlashni rasmiylashtirishda “Notariat toʻgʻrisida”gi Qonunning 32-moddasi va Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi toʻgʻrisidagi yoʻriqnomaning (roʻyxat raqami 3113, 2019-yil 4-yanvar) 3-bandi talablariga rioya qilmagan.

Shunga koʻra, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari toʻgʻrisidagi nizomga (roʻyxat raqami 3250, 26.06.2020 y) ilova qilingan Xususiy notarial faoliyat bilan shugʻullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishini toʻxtatib turishga olib keladigan qoidabuzarliklar hollari va ular boʻyicha litsenziyaning amal qilishini toʻxtatib

turish muddatlarining izoh qismini qo'llab, notarius Sh.Axmedov litsenziyasining amal qilish muddatini 1 oy muddatga qadar to'xtatish haqida to'xtamga keldilar.

Farg'ona viloyat adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasi "Notariat to'g'risida"gi Qonunining 15²-moddasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to'g'risidagi nizomga asosan,

QAROR QILINADI:

1. Notarius M.Rustamova tomonidan 2021-yil 2-avgustdagi 202101595002903-sonli reyestr bilan qayd etilgan turar joy oldi-sotdi shartnomasi rasmiylashtirishda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-noyabrdagi 726-son qarori bilan tasdiqlangan Notariuslar tomonidan ko'chmas mulklarni boshqa shaxsga o'tkazish haqidagi bitimlarni tasdiqlashning ma'muriy reglamentining 31-bandi talablari buzilgan deb topilsin va Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to'g'risidagi nizomga (ro'yxat raqami 3250, 26.06.2020-y) ilova qilingan Xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish muddatlarining 29-bandini qo'llab, notarius M.Rustamova litsenziyasining amal qilish muddatini 3 oy muddatga qadar to'xtatilsin.

2. Notarius E.Ismoilov tomonidan 2021-yil 28-maydagi 202101404004361-sonli reyestr bilan qayd etilgan vasiyatnoma bo'yicha merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnomasi rasmiylashtirishda Fuqarolik kodeksining 1114 va 1151-moddalari, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-noyabrdagi 726-son qarori bilan tasdiqlangan Notariuslar tomonidan merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnomani berishning ma'muriy reglamentining 29-bandi talablari buzilgan deb topilsin va Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to'g'risidagi nizomga (ro'yxat raqami 3250, 26.06.2020 y) ilova qilingan Xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish muddatlarining izoh qismini qo'llab, notarius E.Ismoilov litsenziyasining amal qilish muddatini 15 kun muddatga qadar to'xtatilsin.

3. Notarius U.Qodirov tomonidan 2020-yil 18-iyundagi 202001640000626-sonli reyestr bilan qayd etilgan qonun bo'yicha merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnomasi rasmiylashtirishda Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaning (ro'yhat raqami 3113, 04.01.2019-y) 130 va 136-bandi talablari buzilgan deb topilsin va Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to'g'risidagi nizomga (ro'yxat raqami 3250, 26.06.2020 y) ilova qilingan Xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning






litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish muddatlarining izoh qismini qo'llab, notarius U.Qobilov litsenziyasining amal qilish muddatini 1 oy muddatga qadar to'xtatilsin.

4. Notarius Sh.Axmedov tomonidan 2024-yil 28-martda 202402532000212-sonli reyestr bilan qayd etilgan hujjatlar ko'chirma nusxalarining va hujjatlardan olingan ko'chirmalarning to'g'riligini shahodatlashni rasmiylashtirishda "Notariat to'g'risida"gi Qonunning 32-moddasi va Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaning (ro'yxat raqami 3113, 2019-yil 4-yanvar) 3-bandi talablari buzilgan deb topilsin va Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to'g'risidagi nizomga (ro'yxat raqami 3250, 26.06.2020 y) ilova qilingan Xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish muddatlarining izoh qismini qo'llab, notarius Sh.Axmedov litsenziyasining amal qilish muddatini 1 oy muddatga qadar to'xtatilsin.

5. Komissiya kotibi (L.Asqarov) ushbu bayonnoma nusxasini 2 kun ichida Farg'ona viloyat adliya boshqarmasiga, Notarial palataning Farg'ona viloyat hududiy boshqarmasiga hamda notariuslar M.Rustamova, U.Qodirov, E.Ismoilov va Sh.Axmedovlarga yetkazsin.





6. Notariuslar M.Rustamova, U.Qodirov, E.Ismoilov va Sh.Axmedovlarga malaka komissiyasi qaroriga nisbatan komissiya yig'ilish bayonnomasi nusxasini olgan kundan boshlab 10 kun ichida Adliya vazirligi huzuridagi Oliy malaka komissiyasiga yoki sudga shikoyat qilish huquqi tushuntirilsin.

Komissiya a'zolari:

 **R. Yusufzoda**
 **U. Sapayev**
 **Sh. Jo'rayev**
 **E. Ergashev**
 **Sh. Axmedov**

Komissiya kotibi:

 **L. Asqarov**

Траншифтери: 
Теншифтери:  **U. Axmedov**
Ташкилчилари:  **I. B. Kodirov**
Ташкилчилари:  **E. Ismoilov**